



№3/2024

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Yulbarsova X.A. Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va tavsifi	4
Xushnazarova M.N. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda pedagogika fanining samarali usullaridan foydalanish	10
Raxmedova M.A. Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy merosidan yoshlarni axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari	13
Ismoilov Y.Q. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning texnologik masalalari	17
Iminova H.M. Ta'lim tizimiga konsentrlangan ta'limni integratsiya qilishning zamonaviy pedagogik tendensiyalari	20
Muladjanova G.A., Mullajonova M.D. Oliy ta'lim talabalarining sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish kompetentligini takomillashtirish	25
Wang Ping. Exploration of ethnic music elements in chinese piano works	29
Kadirov A.M., Ergasheva Sh.Q. The role of fine arts in installing the values of human dignity in general education pupils	32
Nadirxanova N.A. Enhancing creative competence in students through the steam educational methodology: integrating visual arts and engineering graphics	38
Axmedova D.X. Interfaol usulda rag'batlantirishning o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'siri	44
O'rinboyev M. I. Fizika o'qitish amaliyotida metakognitiv faoliyatlarni takomillashtirish	48
Burxonova M.M., Sirojiddinov B.A. Amaliy mashq va masalalarning kontekstual asoslari hamda umumta'lim maktablarda qo'llanilishi bo'yicha pedagogik-metodik aspektlar	51
To'raxonova B.T. Bo'lajak pedagog-psixologlarni tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	54
O'smanova D.Z. Zamonaviy dars jarayonida adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirish	57
Xudoyberganova M.A. Talabalarga adabiyotni o'qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning samarali texnologiyalari	61
Iminova D.N. Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni	65
Abdulmadjidova M.D. Ilk o'spirinlik davrida mehnatga munosabatning shakllanishi	68
Dushabayeva G.M. Mustaqil ta'limda chizmachilik fanidan kompyuter dasturlarda foydalanishning ahamiyati	71
Utanova V.M. Diskurs tahlili: umumiy ta'rif, metodologiya va misol	75
Qoraboyev J.B., Qoraboyeva N.N. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik ma'no tuzilishi	78
Umarov A.V. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar – talabalarining mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida	81
Qodirova O.S. Maktabgacha ta'lim yoshida bolalarning ta'lim faoliyatiga faol tashabbuskorlik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	86
Aslonov X.Sh. Dasturlangan laboratoriya ishlarida yarimo'tkazgichlarning ta'qiqlangan zona kengligi tushunchasi	89
Bakirov I.H. Boks sport turida musobaqalarning o'tkazish turlari va musobaqa faoliyati	94
Saidg'aniyev S.O. Bolalar uchun sport gimnastikasi	98
Tojiboyeva N.T. Ta'lim muhitida o'zini-o'zi boshqarishda qiyin bo'lgan o'smirlarning hissiy qulayligining psixologik jihatlarini	100
Dushabayev D.Sh. Umum ta'lim maktablarda jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	103
Abdullaev G'A. The method of determination of aerobic and anaerobic treshhold by heart rate of athletes in the development of endurance qualities in athletics training (In the case of middle and long distance runners)	106
Qurbonova F.M. Talabalarining jamoada ishlash qobiliyatlarini kollobratsiya asosida shakllantirishning psixologik xususiyatlari	110
Shobduraximova U.T. Tavakallchilikka asoslangan virtual o'yinlar va ularning jamiyatga salbiy ta'siri	113
Hasanova S.K. Development of creative thinking of primary class students based on pirls' flows	115
No'monova A.N. O'zbekiston ta'lim tizimiga tasviriy san'atning rang tasvir yo'nalishini tadqiq etishning dolzarb masalalari	119
Toshtemirov Q.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa merosi "shashmaqom"ni o'rganishning ahamiyati	122
Gofurjanova N.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirokining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni	126
IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR	
Yusupova S.N., Bakhronov B. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muamolari	129
Olimova Z.I. Abdulla Avloniyning Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi	132
Mirzayeva B. Maishiy zo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati	134

qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali mavzu tushuntirilsa, yodda saqlab qolishlari ham oson bo'ladi [5].

Ijtimoiy tarmoqlar adabiyot ta'limini oshirish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etsada, axloqiy tashvishlar va amaliy fikrlarni tan olish muhimdir. O'qituvchilar quyidagilarni yodda tutishlari kerak:

- Xavfsizlik qoidalari: Talabalarning shaxsiy hayoti himoyalangan bo'lishi va ma'lumotlar xavfsizligi protokollariga rioya qilinishi kerak.

- Vaqtni boshqarish va chalg'ituvchi narsalar: talabalarga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni akademik ish bilan muvozanatlash, chalg'itmaslik va kechiktirishdan qochish bo'yicha rahbarlik qilish kerak.

- Mavjudlik va tenglik: Barcha talabalar texnologiya va internetga ulanishdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash juda muhimdir [6].

Ijtimoiy media platformalari adabiyotni o'rgatish va o'rganish uslubimizni tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada bayon etilgan innovatsion texnologiyalar va strategiyalarni qo'llash orqali o'qituvchilar o'quvchilarni o'qishda faol ishtirok etishlari, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlari va adabiyotning boy olamiga chuqurroq munosabatda bo'lishlari mumkin. Biroq, darslarda ijtimoiy mediadan mas'uliyatli va axloqiy foydalanish uning o'quv tajribasini boyitish uchun to'liq salohiyatidan foydalanish uchun muhim bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulanova-Toporkova M.V. (Ed.). (2002). Pedagogy and psychology of high school: Textbook. Rostov-na-Donu, Fenix, 544 p
2. Serdyukov, P. (2015). Does online education need a special pedagogy? Journal of Computing and Information Technology, 23(1), 61-74. <https://doi.org/10.2498/cit.1002511>
3. The impact of technology on higher education in the 21st century: a systematic literature review - march 2024: Gap Interdisciplinarity - a global journal of interdisciplinary studies VII(1):120-126
4. Duisenov N. Ta'lim sohasida internet - texnologiyalaridan foydalanish. <https://www.researchgate.net/publication/349125987> 4-b
5. "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi respublika 21- ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami. 31-oktyabr 2020-yil. - Tadqiqot, 2020. 40- b.
6. Ashurova D., Yuldoshev Z. Ta'lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash // Xalq ta'limi. -Toshkent: 2006. - №1. - B. 15-19.

UO'K:372.416

INNOVATIV LOYIHALAR VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

<https://zenodo.org/records/13292295>

Iminova Dilnozaxon Nasirovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini rivojlantirish - ulardagi o'qish faoliyatga kirishish, o'qishga nisbatan shaxsiy motivatsiya uyg'otish hamda o'rganilgan nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishga o'rgatish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni ochib berilgan.*

Kalit so'z: *boshlang'ich ta'lim, o'qish, motivatsiya, o'quvchi.*

Аннотация: *В процессе начального образования возникает необходимость развивать мотивацию учащихся к учебе - заниматься у них читательской деятельностью, вызывать у них личностную мотивацию к учебе, учить применять полученные теоретические знания в реальных жизненных ситуациях. В данной статье раскрывается содержание развития мотивации к чтению у учащихся начальных классов.*

Ключевые слова: *начальное образование, чтение, мотивация, ученик.*

Abstract. *In the process of primary education, there is a need to develop students' motivation to study - to engage in reading activities in them, to arouse personal motivation for studying, and to teach them to apply the learned theoretical knowledge in real life situations. This article reveals the content of developing primary school students' motivation to read.*

Key word: *primary education, reading, motivation, student.*

Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'qish motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyati majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda Mustaqil davlatlar rivojlanishi bilan jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar, dunyoqarashlar almashinuvi va ta'lim tizimini isloh qilish davrida mustaqil ish yurita oladigan yangi tipdagi o'qituvchi kadrlarni fan sohasiga olib kirish zarurati tug'ilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "...kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish" [1] ga asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan.

Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'quvchini o'qishga bo'lgan munosabatlarini qurish uchun ularning individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Avvalo, ta'limda o'quvchilar maqomini yangilash, ularni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish ehtiyoji tug'iladi. Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya'ni o'quvchining ta'lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog'liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya'ni o'quvchilarni o'qish motivatsiyasini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

D.A.Alibekov ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishni falsafiy muammo sifatida tadqiq qilgan. Shu asnoda innovatsion shaxsni tarbiyalashning informatsion, kommunikatsion va sivilizatsiyaga oid pozitiv tendensiyalari kontekstida zamonaviy ta'limning uslubiy, texnologik, tizimli va funksional tamoyillarini falsafiy jihatdan ilmiy asoslagan[2]. Iqtisodchi olim A.A.Salimov mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tahlil qilgan hamda uni takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqqan[3].

Sh.X. Azamovning olib borgan tadqiqot natijalari asosida quyidagicha: "Rivojlantiruvchi ta'lim sohasining umumiy paradigmasini hisobga olgan holda, biz "ta'lim", "taraqqiyot", "tarbiya" va "sog'liq" tushunchalarini alohida ishlay olmasligini e'tiborga olish kerak. Ularni turlicha integratsiyalanishi, o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqadorligi, pedagogik loyihalash o'qituvchining ko'p komponentli murakkab faoliyati bo'lib, uning malakasi, kasbiyligi va texnologik samaradorligiga bog'liq" [4] deb hisoblaydi.

R.O'.Shermatova., J.Sh. Jumabayevalar boshlang'ich sinflarda ta'limni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari, ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlarini tahlil qilar ekan, Ular: "Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani - texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi

bo'yicha tuq'ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo'llabquvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo'ladi" [5].

Olimlarning fikridan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'qish motivatsiyasini rivojlantirish jarayonini faollashtirish, dars tezligini oshirish, o'qish faoliyatining shakllari va turlarini diversifikatsiya (lot. diversifi catio — o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) qilish, ularning mustaqil o'qish ishlari hajmini oshirish, shuningdek, o'qish jarayonini faollashtirishga imkon beradigan bir qator pedagogik texnologiyalarni joriy qilish ta'lim jarayonining motivatsion sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish bilan bir qatorda ularda o'qish moivatsiyasini rivojlantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi samara keltiradi.

Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Innovativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Innovativ loyihalar o'quvchilarda o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. O'qish motivatsiyasini rivojlantirish o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun avvalo o'quvchining ichki motivatsiyasini paydo bo'lishi, uni anglashi, yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratish zarur. O'quvchining muvaffaqiyatli o'zlashtirishida asosiy sabablar quyidagilar

- o'quv materialiga qiziqish;
- uni o'rganishda o'quvchining faol pozitsiyasi;
- mustaqillik;
- ko'rib chiqilayotgan muammolarning dolzarbligi;
- o'qituvchining shaxsiyati;
- o'rganishda hamkorlik va ijodkorlik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ehtiyojlarini qondirish ularning o'rganishga bo'lgan intilishlariga ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida ularning ta'lim faoliyatidagi muvaffaqiyatlariga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni
2. Alibekov D.A. Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari // f.f.d. (PhD) dis.avtoreferati. –Samarqand.:2021. 46 b
3. Salimov A.A. Ta'lim sohasida inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari // iqtisodiyot f.f.d. (PhD) dis.avtoreferati. –Samarqand. 2019. 56
4. Azamov Sh.X Ta'lim sohasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. RESEARCH AND EDUCATION ISSN: 2181-3191 VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2023 Scientific Journal 403-409 b.
5. Shermatova R. O'. Jumabayeva J. Sh. "Maktab ta'limida innovatsiyalarning joriy etilishini nazariy tahlili" 499-503 b.

UO'K: 1599228

ILK O'SPirinLIK DAVRIDA MEHNATGA MUNOSABATNING SHAKLLANISHI

<https://zenodo.org/records/13292297>

Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqolada ilk o'spirinlik yoshi davridagi o'quvchilarning mehnatga bo'lgan munosabatining shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Jumladan, o'spirinlarda mehnatga ijobiy munosabatning shakllanishi undagi berilgan topshiriqqa bo'lgan ishtiyoq, mas'uliyatlilikning borligi bilan belgilanishi, salbiy munosabat topshiriqqa nisbatan mas'uliyatsizlik va qiziqishning yo'qligi bilan namoyon bo'lish xususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ilk o'spirinlik, kasbiy o'zini-o'zi belgilash, mehnatga munosabat, akseleratsiya, kasbiy kamolot, mas'uliyat, kasbiy tanlov.*

Аннотация. *В статье рассматривается формирование отношения учащихся к труду в раннем подростковом возрасте. В частности, говорится, что формирование положительного отношения к труду у подростков определяется наличием увлеченности и ответственности за порученное им задание, а отрицательное отношение проявляется безответственностью и отсутствием интереса к выполнению задания.*

Ключевые слова: *ранний подростковый возраст, профессиональное самоопределение, отношение к труду, акселерация, профессиональное взросление, ответственность, профессиональный выбор.*

Abstract. *The article examines the formation of students' attitudes towards work in early adolescence. In particular, it is said that the formation of a positive attitude towards work in adolescents is determined by the presence of passion and responsibility for the task assigned to them, and a negative attitude is manifested by irresponsibility and lack of interest in completing the task.*

Key words: *early adolescence, professional self-determination, attitude to work, acceleration, professional maturation, responsibility, professional choice.*

